

Servis Korxonalarida Xizmat Ko'rsatish Sifatini Oshirish Omillari

*Naimova Nargiza Akbarovna*¹

Annotatsiya: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, iqtisodiy faoliyatning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan zamonaviy tarmoqlarini rivojlanishi va raqobatdoshlik darajasi asosan uning tabiiy resurs salohiyati, mehnat resurslarining soni va sifati, xizmat ko'rsatishning texnik-texnologik darajasi, biznes yuritish uchun yaratilgan shart-sharoitlarning qulayligi, korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo'lgan talab hajmi kabi bir qancha omillar bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: servis, servis korxonalari, sifat, innovatsiya.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotining sanoat taraqqiyoti bosqichi nihoyasiga yetmoqda. Jahon iqtisodiyotining shundan keyingi davrdagi rivojlanishi kognitiv (lot. «cognito» – «bilim», «tafakkur») bosqichi kognitiv omillar hamda tejamkor iqtisodiyot, nano va biotexnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ta'siri ostida bo'ladi. Bu makroiqtisodiyotda boshqaruv qarorlari ishlab chiqish va qabul qilish uchun talab qilinadigan axborot hajmlarini keskin darajada ortishiga olib keladi. Natijada xodimlarning bilimi va har bir mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish darajasi uning taraqqiyoti va raqobatbardoshligini belgilab beradi [28].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida 2020 yilga «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili», deb nomlandi.² «Raqamli O'zbekiston – 2030» dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yilib, unga ko'ra O'zbekistonni raqamli transformatsiyalashish jarayonini jadallashtirish maqsadi belgilab olindi.

Bugungi kunda jahonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tez sur'atlar bilan amalga oshmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iste'molchilar talabini to'liq qondirish va iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Elektron tijorat tovarlar va xizmatlar realizatsiyasini tezlashtirish asosida inqirozlarni oldini olish mumkin. Bunda virtual to'lovlar tizimi tovar aylanishini tezlashtiradi. Internet reklama esa o'z navbatida reklama auditoriyasini butun dunyo miqyosida kengaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, hozirgi sharoitda xizmat ko'rsatish korxonalarida raqobatdoshlik darajasini oshirish masalasiga innovatsion yondashish talab etilmoqda. Innovatsion texnologiyalarni, zamonaviy ilmiy yutuqlarni xizmat ko'rsatish tarmoqlariga jadal joriy qilish orqali ularning ixtisoslashuvini kengaytirish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini diversifikatsiyalash imkoniyatini beruvchi raqobat muhitini shakllantirish kerak. Bu esa sohada xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslarning sifat tarkibini takomillashtirish mehnat salohiyati va iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi. Salohiyat resursning sifat ko'rsatkichlari yig'indisini aks ettiradi, ya'ni u bir ishchining salohiyatli imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish shaklida inson omilini faollashtirish va amaliyotda qo'llashni ta'minlashdan iborat. SHuning uchun xizmat ko'rsatish

¹ Osiyo xalqaro universiteti

² <https://uza.uz/uz/posts/O'zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020>.



korxonalarida mehnat salohiyatini oshirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga katta e'tibor qaratiladi.

Mehnat salohiyatining sifat ko'rsatkichlariga ko'plab omillar ta'sir qiladi va ular quyidagicha ifodalanadi [28]:

$$f(c) = c(c_1, c_2, c_3, c_4, c_5, c_6, \dots, c_n), \quad (3.1)$$

bu yerda: $f(s)$ – mehnat salohiyatining sifat ko'rsatkichi; s_1 – jismoniy holat va sog'liq darajasi; s_2 – ta'lim va ma'lumot darajasi; s_3 – malakasi va kasbiy mahorati; s_4 – tadbirkorlik qobiliyati; s_5 – hayotiy tajriba va ko'nikmasi; s_6 – dunyoqarashi va ongi; s_6 – odob-axloqi va xulq-atvori; s_6 – ma'naviy etukligi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish asosan sohada faoliyat yuritayotgan xodimlarning raqobatbardoshligiga bog'liq. SHuning uchun sohadagi ishchi-xodimlar raqobatbardoshligini oshirish alohida ahamiyatga. Xizmat ko'rsatish xodimlari raqobatbardoshligi ko'plab belgilar asosida aniqlanadi. Bularga kasbiy-malaka, ijtimoiy-psixologik, fiziologik, g'oyaviy, motivatsion, ma'naviy kabi belgilarni kiritish mumkin. Sohada xodimlar tarkibi tahlili va ularning mehnat samaradorligini aniqlash jarayonida bu belgilar xizmat ko'rsatish jarayonini optimallashtirish, ishchi-xodimlar kasbiy-malaka tarkibining uzluksiz o'zgarishini tasniflash va mehnat resurslarining ekstensiv va intensiv rivojlanish manbalari nisbatini aniqlashda asosiy parametr sifatida namoyon bo'ladi. Bu soha xodimlari raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida ishlovchi xodimlar raqobatbardoshligini kompleks baholash metodikasini ularning kasbiy sifati va ko'nikmalarini sohada mehnatni taqsimlashning funksional talablari darajasiga muvofiq kelishini ifodalashi kerak. Bizningcha, ushbu usulning tavsifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xizmat ko'rsatish faoliyati yo'nalishlari bo'yicha korxonalar xodimlarini asosiy va yordamchi mehnat jarayonida bandlar, boshqaruv xodimlari va mutaxassislar guruhlariga tasniflash;
- ishchi-xodimlarning mehnat salohiyati belgilari va elementlarini aniqlash (ma'lumoti, yoshi, ish staji va h.k.);
- mehnat salohiyati belgilari bo'yicha ishchi-xodimlarni tabaqalashtirish;
- ishchi-xodimlarni muayyan guruhlariga tasniflab, ularning mehnat salohiyati belgilarini 10 balli shkala asosida ekspert baholash;
- tahlil etilayotgan kasbiy guruh ishchi-xodimlar sonini optimal model bo'yicha umumiy ball summasini aniqlash;
- alohida ishchi-xodimlar to'plagan ballni hisoblash;
- alohida ishchi-xodimning individual mehnat salohiyati darajasini hisoblash;
- korxonalar, tarmoq mehnat resurslarining raqobatbardoshlik darajasini hisoblash.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligi uni sifatiga va narxiga ko'ra, shunga o'xshash boshqa ishlab chiqaruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar)ning mahsulotidan ustunligi bilan belgilanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatdagi ustunliklarini bir qator omillar belgilab beradi. Bularni ikki guruhga ajratish mumkin³:


1. milliy kompaniyalarning rivojlanish darajasi;
2. makroiqtisodiy biznes muhitning sifati.

³ O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / mualliflar jamoasi: R.Alimov, A.Rasulev, A.Qodirov va boshqalar. –T.: Konsauditinform-Nashr. 2006,14-b.



Shveysariyaning Davos shahrida har yili bo‘lib o‘tadigan Jahon iqtisodiy forumining ishtirokchilari ma‘ruzalarida firmalar darajasidagi raqobatdoshlik to‘rtta asosiy omil bilan bog‘liq ekani ta‘kidlanadi: resurslar (mamlaktda korxonalar mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishi uchun resurslarning mavjudligi, hajmi va sifati); tashqi raqobat; talab; tarmoqlararo aloqalar⁴.

Bizningcha, shunga o‘xshash ta‘rifni umumlashgan holda xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatdoshligiga ham bersa bo‘ladi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Xizmat ko‘rsatish korxonasining raqobat ustunligini tashkil etuvchi elementlar.

Servis iqtisodiyotining raqobatdoshligi – bu chuqur raqobat sharoitida bozor talablarini qondiruvchi, iqtisodiy rivojlanish va turmush sifatini oshirishni ta‘minlaydigan xizmatlar ko‘rsatish (ishlab chiqarish) hamda uzoq va yaqin istiqbolida iqtisodiy o‘rnatishni ta‘minlash qobiliyatidir.

Respublikamizda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri xizmat ko‘rsatish korxonalarida xizmatlar samaradorligini oshirish hisoblanadi. Bunda avvalambor, xizmatlar ko‘rsatish sohasida mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish asosida iste‘molchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali erishilishi mumkin. Iste‘molchilarning ko‘rsatiladigan xizmatlardan qoniqish darajasi xizmatlar sifati, uning bajarilishi va natijadorligiga bog‘liqdir.

Bizning fikrimizcha, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati – bu iste‘molchilarning muayyan va nazarda tutilayotgan talab va ehtiyojlarini qondirilishini ta‘minlaydigan jarayon bo‘lib, u xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar tavsiflarining majmuini ifodalaydi.

Bunda xizmatlar iste‘molchilarga xizmatlarni amalga oshiruvchi va uni iste‘mol qiluvchi o‘rtasida tuziladigan pudrat shartnomasi (moddiy xizmatlar uchun) va xizmat ko‘rsatish shartnomasi (ijtimoiy, moddiy xizmatlar uchun) asosida taqdim etiladi. Xo‘jalik sub‘yektlari tomonidan bajariladigan xizmatlar sifatiga tuzilgan shartnoma shartlariga rioya qilish (ishlar nomenklaturasi, muddati, ishlar sifatiga qo‘yiladigan talablar) asosida baho beriladi. Taqdim qilinayotgan xizmatlar me‘yoriy talablarga muvofiq kelishi zarur. Xizmatlarni ijro etuvchi davlat standartlari, o‘rnatilgan texnologik tartiblar, sanitariya qoidalari va boshqa me‘yoriy hujjatlarda keltirilgan xizmatlar sifati insonlarning salomatligi, atrof-muhit va mulk xavfsizligining qat‘iy talablariga rioya qilish zaruratini anglatadi.

Ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati ularning iste‘mol xususiyatlari bilan belgilanadi va moddiy tovarlar sifatiga nisbatan ancha murakkab tushuncha hisoblanadi. Chunki iste‘molchilar nafaqat ko‘rsatilgan xizmatlar natijalarini o‘zlashtiradi, balki bir qator hollarda uni ko‘rsatish jarayoning ishtirokchisi ham hisoblanadi. Bundan tashqari, aksariyat moddiy tavsifga ega tovarlar andozaga va iste‘molning standart shartlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi, xizmatlar esa iste‘molchilarning shaxsiy

⁴ “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha Samarqand viloyatida 2012 yilda bajarilgan ishlar va 2013 yildagi ustuvor vazifalar”ni o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma.– Samarqand: SamDU-2013. – 139 b.



tavsifini hisobga olgan holda, alohida ko‘rinishda yoki yakka tartibda amalga oshiriladi. Xizmat ko‘rsatish sohasida xizmatlarning xususiyatlari ob‘yektiv tavsifga ega bo‘lib, bular asosan ularni ko‘rsatish va iste‘molida namoyon bo‘ladi.

Ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda iste‘molchilarning psixologik xususiyatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Iste‘molchilarning ba‘zi guruhlari ular tomonidan zaruriy axborotlarni qabul qilish va xodimlar yo‘riqnomalariga amal qilishga qodir bo‘lmaydi. Ular ba‘zi hollarda o‘zlarini agressiv tutadi. Xizmat ko‘rsatish korxonasi xodimlari iste‘molchilarning psixologik xususiyatini o‘rganishi va har bir iste‘molchining psixologik xususiyatini hisobga olib, xizmat ko‘rsatishga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish talab etiladi. Korxonada xodimlarining hatti-harakatlari xizmat ko‘rsatish sifatining asosiy elementi bo‘lib hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xodimning aytadigan gapini mazmunli, aniq, tushunarli va bilimli bo‘lishi zarur. Servis bo‘yicha xodimning iste‘molchi bilan muloqoti shoshilmasdan amalga oshirilishi zarur. Iste‘molchilarga xizmat ko‘rsatish ish etiketi qoidalariga qattiq rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Korxonada xodimlarining muomala uslubi xizmat ko‘rsatish ssenariysi va ko‘rsatiladigan xizmatlarga muvofiq bo‘lishi lozim. Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassis yaxshi xotiraga ega bo‘lishi, aniq iste‘molchiga xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan, o‘z vaqtida va kerakli ma‘lumotlarni to‘g‘ri etkaza olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. U o‘zini nazorat qila oladigan uslublar va faoliyat natijalarini, ish jarayonidagi kamchiliklar va sifatni kamayish sabablarini operativ tarzda tahlil qilishi kerak.

Xizmat ko‘rsatish korxonasida uzining obruiga mos keladigan xizmat ko‘rsatish uslubi bo‘lishi zarur. Xizmat ko‘rsatish uslubi kontakt zonasida yuzaga keladi va xodimlarga xos bo‘lgan xizmat ko‘rsatishning amaliy usullarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Xizmat ko‘rsatish korxonasi kontakt zonasi faoliyatning tavsifi va mohiyatiga muvofiq kelishi lozim. Masalan, texnikani ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan korxonaning kontakt zonasi ta‘mirlash bo‘yicha mahsulotni diagnostika qilish imkoniyatini beruvchi texnik vositalar va asbob-uskunalar, zaruriy ma‘lumotlarga ega shaxsiy kompyuterlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanishi lozim. Kontakt zonada iste‘molchining bo‘lish vaqti va ular bilan xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassis o‘rtasidagi munosabatlar, xizmatlarning tavsifi hamda ularning shakl va usullariga bog‘liqdir. Iste‘molchilar bilan ishlovchi xodimlarni o‘zlarini tutishlari, xizmat ko‘rsatish qoidalari, korxonaning korporativ madaniyati, shaxsiy madaniyat va ish tajribasiga asoslanadi.

Bizningcha, xizmatlar sifatini oshirishga ko‘pgina omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur omillarga: xodim mehnatining sifati; ularning malaka va kasbiy ko‘nikmalarga egaligi; xizmat ko‘rsatish korxonasini joylashgan o‘rni, ularning ish jadvali, zamonaviy texnika-texnologiyalarning mavjudligi, jihozlanish darajasi va boshqalar.

Xizmat ko‘rsatish korxonasi ish sifati va samaradorligini oshirish: xizmatlarni diversifikatsiyalash; iste‘molchilar ehtiyojlarini to‘liq hisobga olish; sohadagi salbiy holatlarni bartaraf etish; xizmatlarning ijtimoiy ahamiyatini oshirish; xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish; xizmat ko‘rsatish sohasi infratuzilmasini rivojlanishiga olib keladi.

Xizmatlar sohasida xodim faoliyatini tashkiliy jihatdan ta‘minlashning mohiyati ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga yo‘naltirilgan infratuzilmaning rivojlanishi bilan belgilanadi. Xizmat ko‘rsatish korxonasi faoliyatini tashkiliy jihatdan ta‘minlash ikki yo‘nalishda: mehnatning buyumli hamda shaxsga oid elementlarini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

Xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etish elementlari quyidagilardan iborat:

- korxonada bo‘limlarida xizmat turlari bo‘yicha mehnatni operatsion va funksional taqsimlash;
- ish joylarini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muvofiqligini ta‘minlash;
- xizmat ko‘rsatish me‘yorlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;



- mehnat sharoitlarini yaratish;
- sohaga oid xodimlarni tanlash, tayyorlash va malakasini oshirish;
- mehnatni moddiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;
- xizmat ko‘rsatishida yuqori kasbiy mahorat va madaniy saviyani shakllantirish;
- xizmat ko‘rsatish jarayonida intizom rioyalariga amal qilish.

Xizmat ko‘rsatish korxonasi xodimlar bilan ta‘minlanganligi uning sifat tarkibini rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Xodimlarni sifat ko‘rsatkichlari tahlili sifat talabi mezonida xodimlar sonini aniqlash bilan birga olib boriladi.

Xodimlarning sifat tarkibini tahlil qilish kadrlarga bo‘lgan miqdor va sifat ehtiyojlarini oldindan bilish va mavjud tarkibiy talablarga mos kelishi uchun tadbirlar belgilash (tanlash, ishga qabul qilish, tayyorlash, moslashish, malakasini oshirish, gorizantal va vertikal joylashtirish, ishdan bo‘shatish va hokazo), xodimni o‘qitish va malakasini oshirish dasturini ishlab chiqish uchun kerak.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida mehnat jarayonini optimallashtirish ishchi-xodimlar faoliyatining bir qator umumiy tamoyillariga asoslanadi:

- ilmiylik tamoyili – xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etishda ilm-fanning oxirigi yutuqlarini amalda joriy etish;
- komplekslilik tamoyili – xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etishni kompleks rivojlantirish;
- uzluksizlik tamoyili – xo‘jalik faoliyatini tashkil etishda innovatsion rivojlanish uslublaridan foydalanish va xizmat ko‘rsatish jarayonining transformatsiyalashuviga muvofiqligini ta‘minlash;
- me‘yorilik tamoyili – xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishni me‘yoriy negiz asosida amalga oshirilishi;
- tejamkorlik tamoyili – xizmat ko‘rsatish sarf-xarajatlarini optimallashtirish asosida yuqori natijalarga erishish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini faoliyatini tashkiliy jihatdan rivojlantirishning asosiy maqsadi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga: raqobatbardosh xizmatlar sifatini oshirish va xodimlarni tanlash uchun korxonaning imkoniyatlari va natijalariga faol tarzda ta‘sir etishdan iborat.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida xizmatlar sifati ularning iste‘mol xususiyati, uni ifodalovchi mezon va ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Xizmatlar sifati quyidagi mezonlari asosida ifodalanadi:

- ko‘rsatilayotgan xizmatlarning natijadorligi (samaradorligi);
- korxonada xodimlarining kompetentligini oshirish;
- xizmatlarga bo‘lgan iste‘molchilar talabini to‘liq qondirish;
- iste‘molchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar muddatini qisqartirish va korxonada rentabilligini oshirish;
- xizmat ko‘rsatish jarayonida sifatni nazorat qilish usul va uslublarini takomillashtirish.

Xizmat ko‘rsatish sifatining aniqlash mezonlari majmuaviy ko‘rsatkich guruhi orqali aniqlanadi.

Xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rsatkichlaridan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkin:

- o‘rnatilgan standartlar va texnik tartiblarda aynan o‘xshash xizmatlar guruhlari, xizmat jarayonlari, servis faoliyati, ishchi-xodimlar va sifatni boshqarishdagi ko‘rsatkichlar nomenklaturasining shakllanishi;
- xizmatlarga tegishli o‘lchov (nazorat) parametrlarini boshqarish bo‘yicha qoida va takliflarni ishlab chiqish;



- xizmatlar ko'rsatish bo'yicha natijalarini qadoqlash, o'rash, yuklash-tushirish va saqlash qoidalarini ishlab chiqish;
- xizmat ko'rsatish jarayoniga eksploatatsiya va reklama qilish tartiblarini ishlab chiqishda.

Xizmat ko'rsatish jarayonida xizmatlar sifati, ishchi-xodimlarning xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyati natijalarini nazorat qilish sifat ko'rsatkichlarining asosiy funksiyalari hisoblanadi. Sifat ko'rsatkichlari asosida sifatni nazorat qilish va baholash amalga oshiriladi.

Xizmat ko'rsatish natijasining sifatini amalga oshirish jarayonida foydalangan materiallar xom ashyo, texnika va texnologiyalar, iste'molchilarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning kasbiy mahorati va kasbiy malakalariga bog'liq bo'ladi. Xizmatlar sifati darajasiga baho berishda ular bahosi, yaratish va taqdim etish xarajatlari kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarni ham inobatga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
2. Abidovna, A. S. (2024). The Importance of Personnel Management in the Operations of an Organization. *Miasto Przyszłości*, 49, 971-975.
3. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch.
4. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
5. Алимова, Ш. А. (2021). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА КАК НОВЫЙ ЭТАП ГЛОБАЛИЗАЦИИ. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ, 234-238.
6. Alimova, S. (2024). NEW APPROACHES TO THE EFFECTIVENESS OF INTERACTION BETWEEN PROFESSIONAL EDUCATION AND EMPLOYERS. *Modern Science and Research*, 3(7), 211-218.
7. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 211-217.
8. Bazarova, M. (2024). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Modern Science and Research*, 3(6).
9. Bazarova, M. (2024). FEATURES OF BANKING MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(6).
10. Хайитов, Ш. Н., & Базарова, М. С. (2020). Роль иностранных инвестиций в развитии экономики Республики Узбекистан. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 284-287).
11. Базарова, М. С., & Пулатов, Ш. Ш. (2019). Проблемы банковской системы узбекистана и пути их решения. *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации*, 131-133.
12. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
13. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 350-354).



14. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.
15. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 685-690.
16. Shadiyev, A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
17. Khudoynazarovich, S. A. (2021). An Opportunity of Internet Marketing in Tourism Sphere. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(3), 356-361.
18. Shadiyev, A. (2022). EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SINGAPORE TOURISM IN UZBEKISTAN. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 23(23).
19. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HORIJY TAJRIBALARI.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.
21. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Ijtimoiy Soliq Stavkasini Kamaytirish Orqali Davlat Budjeti Daromatlarini Oshirish Imkoniyatlari. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 348-353.
22. Ikromov, E. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 103-109.
23. Ikromov, E. (2024). FEATURES AND ADVANTAGES OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 98-102.
24. Khalilov, B. B. (2024). INTERNATIONAL ACCOUNTING ANALYSIS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 740-745.
25. Халилов, Б. Б., & Курбанов, Ф. Г. (2020). Важность подготовки кадров в экономике. *Вопросы науки и образования*, (6 (90)), 12-14.
26. Khalilov, B. B. (2024). ROLE OF INTERNAL AUDITING IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 413-419.
27. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *IMRAS*, 6(6), 161-165.
28. Bahodirovich, K. B. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746-750.
29. Nafisa, R. (2024). THE PLACE AND ROLE OF TOURISM IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 279-284.
30. Mukhammedrizayeva, T. M., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. TOURIST LOGISTICS AND SUPPLY CHAIN MANAGEMENT: STRATEGIES FOR REDUCING COST AND IMPROVING SERVICE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 90.
31. кизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
32. Орипов, М. А., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Экологически чистое и устойчивое управление цепочками поставок в экономике платформы. *Вестник науки и образования*, (13-2 (91)), 28-30.
33. Bakhridinovna, A. N., & Kizi, R. N. O. (2021). The impact of the digital economy on resource consumption.



34. Nafisa, R. (2024). THE ROLE OF THE MODERN MANAGER IN THE ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje*, 49, 148-154.
35. Raxmonqulova, N. (2023). THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(10), 192-194.
36. Nafisa, R. (2024). Defects in Administration in Economic Development. *International Journal of Formal Education*, 3(9), 17-24.
37. Ruzmetov, B., Jumaeva, Z. K., & Xudayarova, M. (2021). International experience in attracting foreign direct investment. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(4), 38-43.
38. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *ЭКОНОМИКА*, 4, 455-458.
39. Жумаева, З. К. (2023). Потенциал инвестиционной стратегии развития региона. *Gospodarka i Innowacje*, 41, 333-337.
40. Jumayeva, Z. (2024). THE NEED FOR AN INNOVATIVE APPROACH IN MANAGING ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(1), 557-562.
41. Ruzmetov, B., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.
42. Jumayeva, Z. Q. (2024). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF COMPREHENSIVE DEVELOPMENT PROGRAMS OF THE REGION BASED ON THE ACTIVATION OF INVESTMENT PROCESSES. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(7), 137-140.
43. Hakimovich, T. M. (2024). Iqdisodiy Nochor Korxonalarni Moliyaviy Soglomlashtirishning Moliya-Kredit Mexanizmlarini Takomillashtirish.
44. Hakimovich, T. M. (2024). KORPORATIV KORXONALARDA ISH O'RINLARINI YARATISH VA BANDLIKNI TA'MINLASHNING SAMARALI USULLARI.
45. Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA INVESTITSIYA JALB QILISH.
46. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.
47. Hakimovich, T. M. (2024). XIZMAT KO'RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 48, 341-347.
48. Toshov, M. (2024). IMPROVING PUBLIC EDUCATION SYSTEM MANAGEMENT BASED ON MODERN MANAGEMENT APPROACHES. *Modern Science and Research*, 3(6), 716-722.
49. Toshov, M. (2024). WAYS TO DEVELOP AGROTOURISM AND ITS INFRASTRUCTURE IN POST-PANDEMIC CONDITIONS. *Modern Science and Research*, 3(6), 723-729.
50. Toshov, M. (2024). EFFECTIVE METHODS OF CREATING JOBS AND PROVIDING EMPLOYMENT IN CORPORATE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(6), 710-715.
51. Toshov, M. (2024). ATTRACTING INVESTMENT TO THE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS. *Modern Science and Research*, 3(6), 696-702.
52. Sodiqova, N. (2024). THE MAIN STAGES OF THE INNOVATION PROCESS IN THE ENTERPRISE AND ITS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(6), 703-709.



53. Sodiqova, N. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIONS IN ENTERPRISE ACTIVITY OPPORTUNITIES TO USE FOREIGN EXPERIENCE. *Modern Science and Research*, 3(6), 688-695.
54. Sodiqova, N. (2024). THE MAIN METHODS OF SELECTING INNOVATIVE PROJECTS. *Modern Science and Research*, 3(6), 682-687.
55. Turayevna, S. N. (2024). THE ESSENCE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF EMPLOYEE MOTIVATION IN BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 554-558.
56. Sodiqova, N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
57. Sodiqova, N. (2024). KORXONADA INNOVATSIYANING MOHIYATI VA UNING ASOSIY TUSHUNCHALARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
58. To'rayevna, S. N. (2024). YANGI IQTISODIYOT VA UNING MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 333-339.
59. Turayevna, S. N. (2024). THE EFFECT OF LABOR PROMOTION ON WORK EFFICIENCY. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 142-147.
60. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
61. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
62. Bostonovna, D. Z. (2023). USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING THE ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF COMMERCIAL BANKS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(9), 607-613.
63. Bostonovna, D. Z. (2023). WAYS OF USING REENGINEERING IN ENTERPRISES. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(7), 430-435.
64. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
65. Jumayeva, Z. (2024). ROLE OF THE STATE IN REGULATING THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 511-516.
66. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH SOHASINING TASNIFIY BELGILARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 357-364.
67. Akbarovna, N. N. (2024). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 320-326.
68. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO 'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 326-335.
69. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF DIGITALIZATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES OF THE STATE TAX COMMITTEE. *Modern Science and Research*, 3(2), 635-641.
70. Akbarovna, N. N. (2024). KORXONADA MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 133-141.
71. Akbarovna, N. N. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 446-449.



72. Naimova, N. (2024). DIGITALIZATION IN OUR COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM AND APPLICATION IN THE DIGITAL WORLD. *Modern Science and Research*, 3(1), 912-917.
73. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 715-720.
74. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.
75. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 620-627.
76. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 8-14.
77. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 15-21.
78. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). The role of research and innovations in the modernization of the regional economy. *Conferencea*, 43-47.
79. Азимов, Б. Ф., Рахимова, Д. Д., & Солиев, Д. Н. (2022). Научные основы инновационного подхода к развитию промышленности и сокращению бедности в узбекистане. *Universum: экономика и юриспруденция*, (5 (92)), 14-17.
80. Б.Ф. Азимов, А.Ч. Бобоев, & Ж.Ж. Абдуллаев (2022). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКСПОРТНЫХ ДРАЙВЕРОВ РЕГИОНА ПУТЕМ АНАЛИЗА ВНЕШНЕТОРГОВОГО ОБОРОТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 20-24.
81. Азимов Бобир Фаттоҳевич (2019). Ўзбек миллий урф-одатлари инвестицион ва инновацион трансформациялашга муҳтожми?. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (8), 33-39.
82. Djunaitov, G. N., & Azimov, B. F. (2023). Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati. *Science and Education*, 4(1), 888–896.
Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4919>
83. Азимов, Б. Ф. Экономическая безопасность и ее социально-экономическое значение / Б. Ф. Азимов, Д. Д. Рахимова // Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности : Сборник трудов IV Международной научно-практической конференции, Белгород, 28 апреля 2022 года / Под редакцией Е.А. Стрябковой, Н.А. Герасимовой, А.М. Кулик. – Белгород: Общество с ограниченной ответственностью Эпицентр, 2022. – С. 351-354. – EDN PSURWB.
84. Азимов, Б. Ф. Формирование и совершенствование стратегии поддержки инновационной деятельности в регионах Республики Узбекистан / Б. Ф. Азимов // Молодой ученый. – 2022. – № 12(407). – С. 63-65. – EDN VQOYFQ.
85. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
86. Yunusovana, U. N., Munira, D., Nigina, M., & Munojot, M. (2021). WAYS OF DEVELOPING DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN. *САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ*, 527.
87. Rakhimova, L. (2024). THE CONCEPT OF 4P MARKETING. ELEMENTS OF THE MODEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 812-816.

